


## 2019-yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar

Mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini rivojlantirish, chet el fuqarolarini mamlakatga jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan bir qator amaliy ishlar tufayli, quyidagi tendensiya kuzatilmoqda.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni 8279,0 ming kishini tashkil etgan<sup>\*)</sup>. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 29,8 % ga ortgan.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 12932,6 ming kishini tashkil etdi<sup>\*)</sup>. O'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanganda esa bu ko'rsatkich 9,6 % ga kam.

### 2018-2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari




<sup>\*)</sup> Respublikaga kelgan va ketganlarning umumiy sonida bir kishi bir necha marta hisoblanishi mumkin va bu alohida holat sifatida hisobga olinadi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida MDH davlatlaridan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 7661,4 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu jami tashrif buyurganlarning 92,5 % ni tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlardan esa 617,6 ming kishi (yoki 7,5 %) tashrif buyurgan.

2019 yil yanvar–dekabr oylarida MDH davlatlariga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari 12305,6 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu jami tashrif buyurganlarning 95,2 % ni tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlarga esa 627,0 ming kishi (yoki 4,8 %) tashrif buyurgan.

**2018-2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni dinamikasi, ming kishi**



O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining tahlilidan ko'rinadiki, 2019 yil yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1846,0 ming nafar ko'p chet el fuqarolari tashrif buyurgan. Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida jami 13838,6 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2019 yil yanvar-dekabr oylarida esa 12932,6 ming nafarni tashkil etdi.

## 2018-2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi bo'yicha soni




2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 54,4 % (4500,3 ming kishi) erkaklar, 45,6 % (3778,7 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.



Shu bilan birga, ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 57,9 % (7488,3 ming kishi) erkaklar, 42,1 % (5444,3 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.

## 2019 yil yanvar-dekabr oylarida uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni




O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Qozog'iston Respublikasidan 2456,8 ming kishi (barcha tashrif buyurganlarning 29,7 %), Tojikistondan 2389,5 ming kishi (28,9 %), Qirg'izistondan 1533,7 ming kishi (18,5 %), Turkmanistondan 629,6 ming kishi (7,6 %), Rossiyadan 592,4 ming kishi (7,2 %) va Belorusdan 20,4 ming kishi (0,2 %) tashrif buyurgan.

Uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Turkiyadan 108,0 ming kishi (1,3 %), Xitoydan 61,9 ming kishi (0,7 %), Janubiy Koreyadan 40,6 ming kishi (0,5 %), Hindistondan 32,1 ming kishi (0,4 %), Germaniyadan 29,0 ming kishi (0,3 %), Yaponiyadan 25,2 ming kishi (0,3 %), Fransiyadan 21,2 ming kishi (0,3 %), Italiyadan 20,8 ming kishi (0,3 %) va Isroil davlatidan 13,9 ming kishi (0,2 %) tashrif buyurgan.

**2019 yil yanvar-dekabr oylarida uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari, %**



**2019 yil yanvar-dekabr oylarida uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari, ming kishi**




Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi, ya'ni 42,4 % Qozog'iston Respublikasiga (5480,6 ming kishi), 29,9 % Qirg'iziston Respublikasiga (3871,0 ming kishi), 10,2 % Rossiyaga (1323,9 ming kishi), 11,7 % Tojikistonga (1510,0 ming kishi), Turkmanistonga 0,7 % (92,8 ming kishi), Belarusga 0,1 % (13,7 ming kishi) va Ozarbayjonga 0,1 % (13,5 ming kishi) tashrif buyurgan.

**2019 yil yanvar-dekabr oylarida MDH davlatlariga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, %**




**2019 yil yanvar-dekabr oylarida MDH davlatlariga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, ming kishi**



Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan Turkiyaga 219,4 ming kishi, Janubiy Koreyaga 83,3 ming kishi, BAAga 65,8 ming kishi, Saudiya Arabistoniga 51,3 ming kishi, Xitoyga 35,7 ming kishi, Hindistonga 26,3 ming kishi va AQSHga 24,3 ming kishi tashrif buyurgan.


**2019 yil yanvar-dekabr oylarida uzoq xorijiy davlatlarga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni, ming kishi**



O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy safar maqsadlari - bu qarindoshlarni yo'qlash bo'lib, 66,7 % ni tashkil etadi. O'z navbatida sayyohlik - 12,6 %, tijorat - 10,7 %, tranzit - 10,7 %, davolanish - 0,7 %, ishlash - 0,7 %, doimiy yashash 0,6 %, xizmat yuzasidan - 0,6 %, o'qish - 0,3 % va boshqa maqsadlarda - 6,5 % chet el fuqarolari tashrif buyurgan.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 21,4 ming nafari (shundan 42,5 % erkaklar, 57,5 % ayollar) o'qish maqsadida, 54,0 ming nafari (75,8 % erkaklar, 24,2 % ayollar) ishlash maqsadida, 53,1 ming nafari (82,3 % erkaklar, 17,7 % ayollar) xizmat yuzasidan, 55,5 ming nafari (43,3 % erkaklar, 56,7 % ayollar) davolanish maqsadida, 1043,9 ming nafari (47,4 % erkaklar, 52,6 % ayollar) sayyohlik maqsadida, 5520,7 ming nafari (47,2 % erkaklar, 52,8 % ayollar) qarindoshlarni yo'qlash maqsadida kelgan.


**2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining jinsi va safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi, %**



2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 52,3 % - 31–55 yoshlilar, 21,1 % - 19–30 yoshlilar, 18,0 % - 56 yosh va undan kattalar, 8,6 % - 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.

Davolanish maqsadida tashrif buyurgan chet el fuqarolarining 50,4 % - 31–55 yoshlilar, 21,8 % - 19–30 yoshlilar, 19,1 % - 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi. Qarindoshlarni yo'qlash maqsadida tashrif buyurganlarning 51,0 % - 31–55 yoshlilar, 18,9 % - 19–30 yoshlilar, 20,2 % - 56 yosh va undan kattalar bo'lib, sayyohlik maqsadida tashrif buyurganlarning 51,7 % 31–55 yoshlilar, 21,4 % - 19–30 yoshlilar, 21,4 % - 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi.

**2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, %**






### 2019 yil yanvar-dekabr oylarida xizmat safari maqsadida kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




2019 yil yanvar-dekabr oylarida xizmat safari maqsadida kelgan 18 yoshgacha bo'lgan chet el fuqarolarining 0,7 ming nafari erkaklar va 0,7 ming nafari ayollar, 19-30 yoshlilarning 5,6 ming nafari erkaklar va 1,8 ming nafari ayollar, 31-55 yoshlilarning 30,8 ming nafari erkaklar va 5,8 ming nafari ayollar, 56 yosh va undan kattalarning 6,6 ming nafari erkaklar va 1,1 ming nafari ayollardan iborat.

### 2019 yil yanvar-dekabr oylarida sayyohlik maqsadida kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




2019 yil yanvar-dekabr oylarida sayyohlik maqsadida kelgan 18 yoshgacha bo'lgan chet el fuqarolarining 28,7 ming nafari erkaklar va 28,1 ming nafari ayollar, 19-30 yoshlilarning 111,8 ming nafari erkaklar va 111,9 ming nafari ayollar, 31-55 yoshlilarning 263,4 ming nafari erkaklar va 276,1 ming nafari ayollar, 56 yosh va undan kattalarning 91,4 ming nafari erkaklar va 132,5 ming nafari ayollardan iborat.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




2019 yil yanvar-dekabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 58,8 % qarindoshlarni yo'qlash maqsadida, 26,7 % ishlash maqsadida, 2,8 % doimiy yashash maqsadida, 4,7 % sayyohlik maqsadida, 0,7 % xizmat yuzasidan, 0,8 % o'qish maqsadida, 0,4 % tranzit, 0,3 % davolanish maqsadida va 4,8 % boshqa maqsadlar uchun ketgan.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi, %



2019 yil yanvar-dekabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkin, ularning 52,0 % - 31-55 yoshlilar, 29,9 % - 19-30 yoshlilar va 12,4 % - 56 yosh va undan kattalar, 5,7 % - 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi





2019 yil yanvar-dekabr oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, ularning 90,8 ming nafari (ulardan 90,7 % erkaklar, 9,3 % ayollar) xizmat yuzasidan, 104,4 ming nafari (60,5 % erkaklar, 39,5 % ayollar) o'qish maqsadida, 606,1 ming nafari (51,9 % erkaklar, 48,1 % ayollar) sayyohlik maqsadida, 3452,5 ming nafari (76,4 % erkaklar, 23,6 % ayollar) ishlash maqsadida, 7599,3 ming nafari (47,5 % erkaklar, 52,5 % ayollar) qarindoshlarni yo'qlash maqsadida, 37,2 ming nafari (44,2 % erkaklar, 55,8 % ayollar) davolanish maqsadida ketgan.

Sayyohlik maqsadida xorijda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 50,7 % – 31-55 yoshlilar, 20,3 % – 19-30 yoshlilar, 20,0 % - 56 yosh va undan kattalar tashkil etadi. O'qish maqsadida ketganlarning 75,6 % – 19-30 yoshlilar, 18,2 % – 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolar tashkil etadi. Xizmat maqsadlarida tashrif buyurganlarning 69,6 % 31–55 yoshlilar, 18,4 % 19–30 yoshlilar tashkil etadi